

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11069587>

## INTERNET ORQALI SAVDO-SOTIQ QILISHNI TUZISH

**Mengliyeva Shahnoza**

Termiz davlat universiteti Yuridik fakultiteti

2-kurs talabasi

*Annotatsiya: ushbu maqolani o'qish orqasi elektron savdoning ijobiy va salbiy tomonlari va foydalanuvchilarda vujudga keleyotgan muamolar, muamoni hal qilish uchun takliflar bilan yaqindan tanishib chiqish mumkin.*

*Kalit so'zlar: elektron savdo, nao-xao, elektron hujjat, elektron imzo, intellektual mulk, unifikatsiya, litsenziya.*

Bugungi globallashayotgan davrda internet tarmoqlari, texnika va texnologiyalar shu darajada rivojlandiki, inson o'z hayotini bularsiz tasavvur qilolmaydi. Internetsiz biz go'yoki harakatsiz qolganday his qilamiz. Internet orqali biz cheksiz ma'lumot va axborotlarga ega bo'lamiz. Insonlarning yangi nau-xau XXI asr uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu o'zgarishlar internet sohasi, texnika va texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'rganish zamon talabiga aylandi.

Ta'kidlashimiz lozimki, mamlakatimiz hududida 2020-yili 15-martda e'lon qilingan karantin qoidalari joriy etilishi deyarli barcha sohalarda elektron tizimni yanada rivojlanishiga, undan foydalanuvchilarning oson va qulay usullari yaratishga olib keldi. Hozirda elektron shakldagi davlat xizmatlari orqali biz hech qanday qiyinchiliklarsiz muammolarimizni hal qilmoqdamiz. Shu sababli ba'zi korrupsion jinoyatlar va qog'ozbozliklarni ham oldi olinmoqda.

Vertual dunyo foydalanuvchilari kundan kunga soni ortib borar ekan, ular o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni yetarli darajada tartibga solish zaruriyati

yanada ortib bormoqda. Internet sohasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun keng qamrovli qonunlarga ehtiyoj sezmoqdamiz.

Shu jumladan, shu yo‘nalishda davlat funksiyasini bajarish maqsadida elektron hukumat tizimi shakllantirildi, fuqarolarning internet tarmog‘idan foydalanish, tarmoq orqali o‘zaro fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishish shart-sharoitlari yaxshilandi hamda mazkur sohadagi qonun hujjatlari bilan mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi (2003), “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi (2003), “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi (2004), “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi (2004), “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi (2015) qonunlari va boshqa bir qancha huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilingan.

Dunyoda internet tarmog‘ida vujudga keluvchi vertual ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo‘yicha bir qator quyidagi tadqiqot ishlari olib borilmoqda: internet tarmog‘idagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi milliy qonun hujjatlarining xalqaro unifikatsiyasini ta‘minlash, elektron tijorat doirasida savdo operatsiyasini amalga oshirishni ta‘minlash, intellektual mulk egalarining huquqlarini internet tarmog‘ida himoya qilishdan iborat.

Internet tarmog‘ining imkoniyatlaridan yana biri bu elektron savdo-sotiq va turli xizmatlarning yo‘lga qo‘yilganligida. Ilmiy adabiyotlarda elektron savdoni yetarli darajada tushuntirish uchun tadqiqotlar o‘tkazilgan. Masalan, Gromova O. va Shelihov V. tovarlarni pochta orqali jo‘natish yo‘li bilan birjadan tashqari chakana savdo va xaridorlarning individual buyurtmalarga binoan ular ko‘rsatgan manzillarga yetkazib berishni elektron savdoning bir shakli deb hisoblaydi. <sup>i</sup>

Endilikda soatlab vaqtimizni bozorlarni aylanish va navbatlarni kutishda sarflamaymiz. Hattoki chet davlatdan ham o‘zimiz tovarlarni xarid qilish imkoniyatini qo‘lga kiritishimiz mumkin. Bu esa chet el mamlakatlari bilan yangidan yangi tijorat yo‘llarni ochilishiga, hamda elektron savdo sovasidagi munosabatlatdagi xizmatlarni chuqurroq o‘rganib chiqishga, turli masalalarga yechim bo‘luvchi xalqaro shartnomalar tuzishga erishildi.

Elektron platformaning imkoniyatlari son-sanoqsiz:

Birinchidan, internetda xarid qilish mijozlarga narxlarni solishtirish va almashtirishlardan xabardor bo'lish imkoniyatini beradi. Bir marta enter tugmasini bosish bilan mijozlar, raqiblar mezoniga kirishlari va ularni tanlashlari mumkin. Bu bozor samaradorligini va ularning raqbatini oshiradi.

Ikkinchidan, elektron tijorat tizimlari orqali internet tomonidan ishlab chiqilgan tranzaksiya xarajatlari kamayadi va bu global iqtisodiyotda keng ko'lamli siljishlarni keltirib chiqaradi. Bu savdoni kengaytiradi va internetdagi xarajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, u ishlab chiqarish omillarini taqsimlaydi, kompaniyalarga xalqaro mehnat taqsimotini rivojlantirish uchun imtiyozlar beradi. Boshqacha qilib aytganda elektron platformalar kompaniyalar samaradorligini oshiradi.<sup>ii</sup>

Elektron savdo telegram, instagram, va uzum kabi boshqa ijtimoiy tarmoqlarida rivojlanib undan foydalanuvchilar soni ko'paymoqda. Deyarli barcha savdo-sotiq bilan shug'ullanayotgan shaxslarning ko'pi elektron savdo tizimiga ega bo'ldi.

Birgina uzum platformasini olib qaraydigan bo'lsak, undan foydalanuvchilarga buyurtma qilgan tovarlarni 24 soat ichida mutlaqo bepul yetkazib beriladi, xaridorga manzur bo'lmagan tovarlarni qaytarib berish yoki boshqasiga almashtirish mumkin.

Ammo tanganing ikkinchi tomoni bor degandek, biz sotuvchini ko'rmaymiz va u bilan jonli muloqot qilolmaymiz. Sotuvchi tomonidan haqiqatdan tovar olib kelish va savdo qilishi, yoki tashkilotining xizmatidan foydalanish orqali aldanib qolish ehtimoli

bizni hech tark etmaydi. Bundan tashqari tovarning sifati va razmeriga nisbatan ham ishonsizlik allaqachon shakllanib bo'lganligi muammolarga sabab bo'lmoqda.

Vaholangki, tovar va xizmat biz o'ylagan darajada emasligi, undan qoniqmaganligimizni sotuvchiga xabardor qilganimizda "Biz tovarni qartarib olmaymiz, yetkazilgan harajatni ham bo'ynimizga olmaymiz" degan javobni oladi. Ustiga ustak reklama qilingan tovar mos bo'lmagan rang, razmer, turdagi tovarni olgan xaridor bu usuldagi savdodan batamom ishonchi uzuladi.

O‘z shablonlarida xarid qilingan tovarlar qartarib olimaydi deb yozib qo‘yayotgan sotuvchilar davat tomonidan o‘rnatilgan qonun hujjatlari normalarini bilmasdan buzayotganligi ularni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Afsuski, internet tarmog‘i foydalanuvchilarining ko‘pchiligi elektron savdodan foydalanayotganda o‘zi va sotuvchi tomonidan yo‘l qo‘yayotgan qonunbuzarlik haqida yetarli ma‘lumotga ega emas. Shuning uchun noroziliklarga hali-hamon chek qo‘yilmadi.

Ayniqsa telegramda son-sanog‘i yo‘q turli savdo guruhlarini ochilmoqda va xaridorlarga tovarlar yetkazib berish bilan shug‘ullanishmoqda hamda telegramdagi kanallardan foydalanish ancha qulay va hech qanday noqulayliklar tug‘dirmaydi. Ammo sotuvchilar istalgan vaqtda guruhni butunlay o‘chirib tashlashi mumkin. Xaridor to‘lagan pul summasini qayerdan qaytarib olishi mumkin? Ushbu masala bo‘yicha qaysi qonun hujjati qo‘llaniladi? Bu savollar haligacha javobsiz qolmoqda.

Bu borada “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun hujjatiga “elektron savdo qilish sohalariga ham tadbiiq etiladi” degan tadbiiq etilish sohasi bo‘yicha alohida modda kirgizish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, elektron savdo sohasi foydalanuvchilarga qonun hujjatlarini aniq va tushunarli bo‘lgan tarzda yetkazish lozim. Telegram, instagram tarmoqlarida o‘z savdo guruhini shakllantirayotgan shaxslarni tartibga solish uchun litsenziya va ID berishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bu orqali biz xaridorlarni elektron savdoga bo‘lgan ishonchiga erishishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Негосударственное образовательное учреждение организация высшего образования "российская академия адвокатуры и нотариата"

<sup>1</sup> <http://www.byarcadia.org/post/law-of-e-commerce>

<http://archive.org/>